Zokirova Ferangiz Zafarovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi, Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti (ingliz tili); ferangizzokirova05@icloud.com)

RASMIY HUJJATLAR TARJIMASIDA LINGVOKULTUROLOGIK VA HUQUQIY NOMUVOFIQLIKLAR MASALASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rasmiy hujjatlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvokulturologik va huquqiy nomuvofiqliklar muammosi tahlil qilinadi. O‘zbek huquqiy tizimida qo‘llaniladigan bir qator atama va tushunchalar xorijiy tillarda to‘liq ekvivalentiga ega emaslik muammosi ochib beriladi. 320 nafar respondent ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari, hujjat tarjimasi sifatini baholash mezonlari va 2018–2024-yillardagi statistik ma'lumotlar tahlili asosida asosiy nomuvofiqlik turlari aniqlanadi. Maqolada tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinib, ularni kamaytirish maqsadida milliy huquqiy tarjima glosariysini shakllantirish, standartlashtirilgan sertifikatlash tizimini rivojlantirish va tarjimonlar malakasini oshirish mexanizmlarining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida rasmiy hujjatlar tarjimasini takomillashtirish jarayonida muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *rasmiy hujjat tarjimasi, lingvokulturologik ekvivalentlik, huquqiy tarjima, terminologik nomuvofiqlik, O‘zbek huquqiy tizim, tarjima standartlari, sertifikatlash.*

ПРОБЛЕМА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ И ПРАВОВЫХ НЕСООТВЕТСТВИЙ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ОФИЦИАЛЬНЫХ ДОКУМЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется проблема лингвокультурологических и правовых несоответствий, возникающих в процессе перевода официальных документов. Раскрывается проблема отсутствия полных эквивалентов ряда терминов и понятий, используемых в узбекской правовой системе, в иностранных языках. На основе анализа результатов анкетирования, проведённого с участием 320 респондентов, критериев оценки качества перевода документов, а также статистических данных за 2018–2024 годы выявлены основные виды несоответствий. В статье проанализированы проблемы, возникающие в процессе перевода, и освещается значение формирования национального глоссария правового перевода, развития стандартизированной системы сертификации и механизмов повышения квалификации переводчиков с целью минимизации данных проблем. Показано, что результаты исследования имеют важное практическое значение в процессе совершенствования перевода официальных документов в рамках стратегии Республики Узбекистан «Цифровой Узбекистан – 2030».*

Ключевые слова: *перевод официальных документов, лингвокультурологическая эквивалентность, юридический перевод, терминологическое несоответствие, узбекская правовая система, стандарты перевода, сертификация.*

THE PROBLEM OF LINGUACULTURAL AND LEGAL INCONSISTENCIES IN THE TRANSLATION OF OFFICIAL DOCUMENTS

Annotation. *This article studies the linguacultural and legal discrepancies that arise during translation of official documents with particular focus on the Uzbek legal system. Many legal terms and institutional concepts embedded in Uzbek law lack precise equivalents in major foreign languages, creating risks of legal misinterpretation, document rejection, and procedural delays. Drawing on survey data from 320 respondents including certified translators, legal professionals, and government officials, combined with analysis of official translation requests for the period 2018–2024, this article identifies and categorizes seven principal discrepancy types. The article analyzes the problems that arise during translation process and highlights the importance of developing a national legal translation glossary, improving a standardized certification system and enhancing translators' professional skills in order to reduce these issues. The results of the study demonstrate that they have significant practical importance for improving the translation of official documents within the framework of the "Digital Uzbekistan 2030" strategy of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *official document translation, linguacultural equivalence, legal translation, termino-logical discrepancy, Uzbek legal system, translation standards, certification.*

Kirish. Globallashuv va xalqaro integratsiyaning kuchayishi sharoitida rasmiy hujjatlarni tarjima qilishga bo‘lgan talab va sifat tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy, ma'muriy va diplomatik sohalarda amalga oshiriladigan tarjimalar nafaqat til almashinuvi, balki turli huquqiy madaniyatlar, tizimlar

va institutsional tartiblar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini ham bajaradi.[1] Shu bois rasmiy hujjatlar tarjimasida yuzaga keladigan lingvokulturologik va huquqiy nomuvofiqliklar murakkab va ko‘p qirrali ilmiy muammo sifatida doimo tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelgan.

O‘zbek huquqiy tizimi asrlar davomida shakllanib, o‘ziga xos terminologik va institutsional tarkibga ega bo‘lgan. Mazkur tizimning ko‘plab tushunchalari, jumladan, “mahalla”, “meros”, “vasiylik”, “prokuratura” kabi institutlar xorijiy tillarda to‘liq ekvivalentiga ega emas. Bunday holatlarda tarjimon nafaqat lingvistik, balki huquqiy va madaniy bilimlarni ham qo‘llashi zarur bo‘ladi. Ammo bunday bilimlar majmuyi tarjimonlarda har doim ham mavjud emas[2].

Tadqiqot amaliy dolzarbligini 2018–2024-yillar davomida O‘zbekistonda rasmiy tarjima talablari 12 400 dan 41 200 tagacha, ya’ni, 3.3 baravar oshganligi ko‘rsatadi (4-rasm). Shu bilan birga, tarjima xatolari natijasida yuzaga kelgan huquqiy nizolar, hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish holatlari va moliyaviy yo‘qotishlar ham sezilarli darajada o‘sib bormoqda.[3]

Adabiyotlar sharhi. Huquqiy tarjima sohasidagi ilmiy adabiyotlar ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanib keladi: birinchisi – lingvokulturologik yondashuv, ikkinchisi – huquqshunoslik nuqtayi nazaridan tarjimani o‘rganish.

Salehi va Sahragard o‘z tadqiqotida “huquqiy madaniy tushunchalar” (*legal culture–bound concepts*) muammosini atroflicha o‘rganib, *civil law va common law* tizimlari o‘rtasidagi tizimiy farqlar tarjima sifatiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishini ochib beradi. Ular ishlab chiqqan tasnif bo‘yicha huquqiy nomuvofiqliklar uch darajada namoyon bo‘ladi: leksik, sintaktik va pragmatik.

Garzone huquqiy tarjimada “ekvivalentlik” tushunchasini qayta ko‘rib chiqib, an’anaviy lingvistik ekvivalentlik kontsepsiyasining huquqiy matnlarga qo‘llanilishi cheklangan ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, huquqiy ekvivalentlik, bu, avvalo, funksional ekvivalentlik bo‘lib, maqsad tizimidagi hujjat asl tizimda qanday huquqiy ta’sir ko‘rsatsa, xuddi shunday ta’sir ko‘rsatishi kerak.

Mahkamov o‘zbek-rus va o‘zbek-ingliz huquqiy tarjima sohasida muhim hissa qo‘shgan olim bo‘lib, uning tadqiqotlari milliy huquqiy terminologiya xorijiy tillarda turlicha tarjima qilinishi natijasida yuzaga keladigan tushunchaviy noaniqliklarni ko‘rsatib bergan. Jumladan, “qaror” so‘zi ingliz tiliga *“decision”, “resolution”, “ruling”, “order”* va *“decree”* shakllarida tarjima qilinishi hujjat yuridik kuchini baholashda jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.[4]

Xalqaro miqyosda *UN Translation Service* va *EU Translation Centre* rasmiy tarjima standartlarini ishlab chiqishda yetakchi tashkilotlar bo‘lib, ularning metodik ko‘rsatmalari milliy tarjima tizimlarini takomillashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, mazkur ko‘rsatmalar ko‘proq “katta” huquqiy tizimlar – fransuz, ingliz, nemis uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘zbek huquqiy tizimiga xos muammolarni yetarli darajada qamrab olmaydi.[5]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot aralash metodologiyaga (*mixed methods approach*) asoslanadi, ya’ni miqdoriy va sifatiy tadqiqot usullarini birlashtiradi. Tadqiqotning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

1. Qiyosiy taqqoslash usuli (*comparative analysis*). Ushbu metod orqali o‘zbek, ingliz va rus huquqiy tizimlari terminologiyasi, hujjat tuzilishi va rasmiylashtiruv talablari qiyosiy tahlil qilindi.
2. So‘rovnoma (survey research). Ushbu metod orqali sertifikatlangan tarjimonlar, huquqshunoslar, davlat xizmatchilari va akademik tadqiqotchilar o‘rtasida strukturlangan so‘rovnoma o‘tkazilgan (2024, yanvar–mart).
3. Hujjatlar tahlili (*document analysis*). 2018–2024-yillar davomida O‘zbekiston notarial idoralariga va tarjima byurolariga kelib tushgan rasmiy tarjima so‘rovnomalari statistikasi tahlil qilindi (n = 41,200+ hujjat).
4. Kontent tahlili (*content analysis*). 12 ta davlat va 8 ta xususiy tarjima xizmatidan olingan 240 ta tarjima qilingan hujjat sifati va xatolari bo‘yicha kontent tahlil usulida ko‘rib chiqildi.

---

[1] Translating Law. Clevedon: Multilingual Matters, 2007, p. 242.

[2] Harvey M. What’s So Special About Legal Translation? Meta: Translators’ Journal, 2002, 47(2), p. 177–185. https://doi.org/10.7202/008007ar

[3] O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (2023). Rasmiy tarjima xizmatlari statistikasi. Toshkent, Adliya vazirligi nashriyoti.

[4] Mahkamov N. O‘zbek huquqiy terminologiyasining ingliz va rus tillaridagi ekvivalentlari. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi (2019), 310-bet.

[5] European Union Translation Centre (2023). EU Multilingual Legal Glossary. Standards and Best Practices. Luxembourg: Publications Office of the EU.

5. Xalqaro standartlar tahlili: ISO 17100:2015 (*Translation Services*), UN, EU va NAATI (Avstraliya) tarjima sertifikatlash standartlari o‘rganildi va O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslandi.

Tadqiqot etik me’yorlariga rioya etilgan, barcha respondentlar ishtiroki ixtiyoriy bo‘lib, shaxsiy ma’lumotlar saqlanishi kafolatlanildi. Miqdoriy ma’lumotlar SPSS 26.0 va Microsoft Excel 2021 dasturlarida qayta ishlangan.

Tahlil va natijalar. Nomuvofiqlik turlarining tasnifi. Tadqiqot davomida rasmiy hujjatlar tarjimasida uchraydigan asosiy nomuvofiqlik turlari aniqlandi va tasnif qilindi. 1-jadvalda ushbu turkumlanish, ta’rif, misol va uchratish darajasi ko‘rsatilgan.

1-jadval


Rasmiy hujjatlar tarjimasidagi lingvokulturologik va huquqiy nomuvofiqlik turlari

No.	Discrepancy Category	Description	Example (Uz → EN)	Occurrence Rate
1	Terminological Equivalence Gap	Legal terms lacking direct equivalents across legal systems	“Mahalla”–“Neighborhood” Committee" (loses institutional status)	78%
	Terminologik muqobillikdagi tafovut	Turli huquqiy tizimlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalenti mavjud bo‘lmagan huquqiy terminlar	“Mahalla” atamasining “Neighborhood Committee” sifatida tarjima qilinishi uning ijtimoiy-institutsional mazmunining qisman yo‘qolishiga olib keladi	
2	Cultural Specific Legal Concepts	Concepts deeply embedded in local legal culture with no foreign analogue	“Meros” (Uzbek inheritance norms) va Western estate law	65%
	Madaniy so‘zlarga xos huquqiy tushunchalar	Mahalliy huquqiy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘l gan va boshqa huquqiy tizimlarda mavjud bo‘lmagan tushunchalar	O‘zbekistonning “Meros” normalari va G‘arb mamlakatlaridagi estate law tizimi	
3	Legal System Incompatibility	Differences between civil law and common law systems affect document structure	Notarial certification requirements differ by jurisdiction	71%
	Turli huquqiy tizimlar o‘rtasidagi nomuvofiqliklar	Fuqarolik huquq tizimi va umumiy huquq tizimlari o‘rtasidagi farqlar huquqiy hujjatlarning tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi	Notarial sertifikatlash talablari turli yurisdiktsiyalarda har xil bo‘lishi mumkin	
4	Formal and Procedural Requirements	Document structure, layout and required elements vary by country	Apostille and consular legalization requirements	58%
	Rasmiy shakl va protsedura talablari	Hujjatlarning tuzilishi, rasmiy ko‘rinishi hamda majburiy elementlari turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi	Apostil va konsullik tasdiqlash talablari	
5	Pragmatic Mistranslations	Illocutionary force of directives, permissions, prohibitions altered in translation	“Ko‘rsatma” rendered as “recommendation” and binding “instruction”	62%
	Pragmatik noto ‘‘g ri tarjimalar	Tarjima jarayonida buyruqlar, ruxsatlar va taqiqlarning illokutsion ta’siri o‘zgarishi kuzatiladi	Tarjima jarayonida “ko‘rsatma” atamasini “recommendation” deb berish uning majburiy bo‘lgan “instruction” mazmunining yo‘qolishiga olib keladi	
6	Institutional Name Equivalence	Government bodies and institutions have no standard foreign language names	"Xalq ta'limi vazirligi" – inconsistent English renderings	54%

	Tashkilot nomlarining ekvivalentligi	Turli davlat organlari va institutlarning xalqaro yoki xorijiy tillardagi nomlari standartlashtirilmagan	“Xalq ta’limi vazirligi” nomining ingliz tilida standart va izchil ekvivalenti yo‘qligi	
7	Register and Formality Mismatch	Formal register of source document not maintained in target language	Administrative language rendered in informal English style	47%
	Stil va rasmiylik mos kelmasligi	Tarjima jarayonida asl hujjatning rasmiy stil va registri maqsadli tilga yetarlicha aks ettirilmasligi kuzatiladi	Tarjima jarayonida ma’muriy tilning rasmiy registri ingliz tilida norasmiy uslub bilan aks ettiriladi	

Manba: muallif tomonidan so‘rovnoma natijalari asosida tuzilgan (n=320, 2024).

Jadval tahlili ko‘rsatishicha, terminologik ekvivalentsizlik (78%) eng ko‘p uchraydigan nomuvofiqlik turi bo‘lib, uni huquqiy tizimlar muvofiqligi muammosi (71%) va madaniy–spesifik tushunchalar bo‘shlig‘i (65%) ustunlik qiladi. Mazkur uch tur birgalikda barcha tarjima muammolarining taxminan 70 foizini tashkil etadi. Quyidagi tasvirga e’tibor qaratamiz:



1-rasm. Rasmiy hujjatlar tarjimasidagi nomuvofiqlik turlari va uchratish darajasi (%, n=320). Manba: muallif so‘rovnomasi, 2024.

Terminologik tahlil. O‘zbek huquqiy atamalarining xorijiy tillardagi ekvivalentlari. 2-jadvalda O‘zbek huquqiy terminologiyasining ingliz tiliga tarjimasida kuzatiladigan eng yuqori xavf darajasiga ega terminlar ro‘yxati va ular uchun tavsiya etilgan ekvivalentlar keltirilgan.

2-jadval

O‘zbek huquqiy terminlarining ingliz tilidagi ekvivalentlari qiyosiy tahlil


Uzbek Legal Term	Literal Translation	Recommended Equivalent	Legal System	Risk Level
Vasiylik va homiylik	Guardianship and patronage	Guardianship and Custodianship	Family Law	High
Ijara shartnomasi	Rent contract	Lease Agreement	Civil Law	Medium
Tergov harakatlari	Investigation actions	Investigative Measures	Criminal Procedure	High
Sudning qarori	Court's decision	Court Order / Judgment (context–dependent)	Civil/Criminal	Very High
Meros qoldirguvchi	Heritage leaver	Testator / Decedent	Inheritance Law	High
Fuqarolik holati aktlari	Civil status acts	Civil Registry Records	Administrative	Medium
Prokuratura	Procuratorate	Office of the Prosecutor General	Constitutional	High
Davlat boji	State duty	Court Filing Fee / State Duty	Procedural	Medium

Manba: muallif tomonidan hujjatlar kontent tahlili va ekspert intervyu asosida tuzilgan (n=240 hujjat, n=32 ekspert, 2024).

Bunda, ayniqsa “sudning qarori” tushunchasi partikular tizimiy muammo hisoblanadi. O‘zbek huquq tizimida bu atama ijroiya hujjati bo‘lgan “buyruq” (order), nizoni hal qiluvchi “qaror” (judgment), protsessual “ajrim” (*ruling*) va konstitutsiyaviy organ “qarori” (*decision*) ni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday polisemantik terminlarni kontekst-siz tarjima qilish og‘ir huquqiy oqibatlarga olib keladi.

Tarjima xatolarining oqibatlari

Figure 2. Consequences of Translation Discrepancies in Official Documents




2-rasm. Rasmiy hujjatlar tarjimasidagi xatolarning oqibatlari bo‘yicha taqsimot (%). Manba: muallif so‘rovnomasi, 2024.

2-rasmda ko‘rsatilganidek, tarjima xatolarining eng jiddiy oqibati huquqiy nizolar (28%) bo‘lib, uni hujjatni rad etish (24%) va muolajalar kechikishi (21%) ustunlik qiladi. So‘rovnoma ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 67 foizi so‘nggi 3 yil ichida tarjima xatosi natijasida eng kamida bir marta hujjatni qayta rasmiylashtirishga majbur bo‘lgan, 23 foizi esa tarjima xatosi tufayli moliyaviy yo‘qotishlarga duchor bo‘l-gan.

Standartlashtirish yondashuvining ta’siri. Tadqiqotda standartlashtirilgan tarjima metodologiya-sini qo‘llash hujjat tarjimasi sifatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash uchun qiyosiy tahlil o‘tkazildi. 3-rasmda standartlashtirish to‘liq joriy etilgan muassasalar va standartlashtirilmagan muassasalar o‘rtasidagi tarjima aniqligi solishtirma natijalari keltirilgan. Navbatdagi tasvirga e’tiborni qaratamiz:

Figure 3. Translation Accuracy Before and After Standardization by Document Type




3-rasm. Standartlashtirish amaliyotiga qadar va keyingi tarjima aniqligi qiyosi.

Manba: muallif hisob-kitobi, 2024.

Standartlashtirilgan muassasalarda tarjima aniqligi barcha hujjat turlarida 19–33 foiz punktga oshgan. Eng katta yaxshilanish sud hujjatlari (55%dan 84%ga, +29) va shartnomalar (62%dan 89%ga, +27) sohasida kuzatilgan. Bu natijalar standartlashtirish va sertifikatlash tizimining amaliy samaradorligini empirik tarzda tasdiqlaydi.

Rasmiy tarjima talabining o‘sish dinamikasi



4-rasm. O‘zbekistonda rasmiy tarjima talabi o‘sishi va xato darajasi dinamikasi (2018–2024).
Manba: Notarial palata statistikasi, tarjima byurolari hisobotlaridan olingan.[1]

4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, rasmiy tarjima talabi 2018–2024-yillar davomida izchil va tez o‘sib borgan (12400 dan 41200 ga so‘rov, +232%). Bir vaqtning o‘zida tarjima xato darajasi 18.2% dan 9.8% ga kamaygan, ammo bu hali ham juda yuqori ko‘rsatkich. Xalqaro standartlar (ISO 17100) bo‘yicha maksimal ruxsat etilgan xato darajasi 2%ni tashkil etadi, ya’ni, O‘zbekistondagi joriy ko‘rsatkich me’yordan 4.9 baravar yuqori.[2]

Yuqorida tahlil qilinganlarga asoslanib, maqola rasmiy hujjatlar tarjimasida lingvokulturologik va huquqiy nomuvofiqliklarlarga ma’lum darajada yechim keltirib o‘tadi.

Milliy huquqiy tarjima glosariysi (MHTG). O‘zbek huquqiy terminologiyasining ingliz va rus tillardagi standartlashtirilgan ekvivalentlari lug‘ati. Lug‘at har bir termin uchun: asosiy ekvivalent, muqobil ekvivalentlar, foydalanish konteksti, vazifaviy ta’rif va tarjima taqiqlari bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Prototip namuna sifatida *EU Glossary of Legal Terms* (1600+atama) va *UN Terminology Database* (UNTERM) tajribasi asos qilib olingan.[3]

Yagona sertifikatlash tizimi. ISO 17100:2015 standartiga asoslangan, lekin O‘zbek huquqiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan milliy sertifikatlash tizimi. Ushbu tizim huquqiy tarjima ixtisosligini alohida belgilaydi va uchta daraja bo‘yicha asosiy, ilg‘or va ekspert – malaka darajalarini nazarda tutadi.[4]

Raqamli terminologik ma’lumotlar bazasi. Davlat tashkilotlari, notarius idoralari va tarjima byurolari uchun ochiq kirish huquqiga ega bo‘lgan onlayn platforma. Platforma real vaqtda yangilanadigan ter-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Notarial palatasi (2022). Rasmiy tarjima va notarial tasdiqnoma yo‘riqnomasi. Toshkent, Notarial palata nashriyoti.
[2] NAATI (2023). Certification Standards for Legal Translation. A Comparative Global Analysis. Canberra: National Accreditation Authority for Translators and Interpreters.
[3] United Nations Translation Service (2022). UN Terminology Database (UNTERM): Methodology and Standards. New York, United Nations Secretariat.
[4] NAATI (2023). Certification Standards for Legal Translation. A Comparative Global Analysis. Canberra, National Accreditation Authority for Translators and Interpreters.

min bazasi, kontekstga asoslangan qidiruv tizimi, tez-tez uchraydigan xatolar bo‘yicha ogohlantirish funksiyasi va mashinaviy tarjima to‘ldirgichi (MT post-editing support) imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi.[1]

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu tadqiqot rasmiy hujjatlar tarjimasidagi lingvokulturologik va huquqiy nomuvofiqliklar O‘zbekistonda hali ma’lum darajada hal etilmagan tizimli muammo ekanligini empirik tarzda tasdiqladi. So‘rovnoma, hujjat tahlili va 2018–2024-yillar statistikasi asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: rasmiy hujjatlar tarjimasidagi eng keng tarqalgan muammo terminologik ekvivalentsizlik (78%) bo‘lib, uni huquqiy tizimlar muvofiqligi muammosi (71%) va madaniy so‘zlarga oid huquqiy tushunchalar bo‘shlig‘i (65%) tashkil etadi. Standartlashtirilgan tarjima amaliyotlari barcha hujjat turlarida aniqliqni 19–33 foiz punktga oshirishga imkon beradi, bu esa tizimiy yechimlarning samaradorligini isbotlaydi. Joriy tarjima xato darajasi (9.8%) ISO 17100 standartida ko‘rsatilgan maksimal me’yordan (2%) 4.9 baravar yuqori bo‘lib, favqulodda islohot zaruratini ko‘rsatadi. Taklif etilayotgan uch bosqichli yechimlar tizimi, Milliy Huquqiy Tarjima Glosariysi, yagona sertifikatlash tizimi va raqamli terminologik baza xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan holda O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bowker L. (2023). Computer-Aided Translation Technology. A Practical Introduction (2nd ed.). Ottawa, University of Ottawa Press, 258 p.

(2). Clevedon. Translating Law. Multilingual Matters, (2007), 242 p.

(3). Gemar J.-C. (2002). Le plus et le moins–disant culturel du texte juridique. Meta: Translators’ Journal, 47(2), p. 163–176.

(4). Garzone G. Legal Translation and Functionalist Approaches. A Contradiction in Terms? ASTTI/ETI Proceedings, (2000), p. 395–414.

(5). Harvey M. What’s So Special About Legal Translation? Meta: Translators’ Journal, (2002). 47(2), p. 177–185. https://doi.org/10.7202/008007ar

(6). Mahkamov N. O‘zbek huquqiy terminologiyasining ingliz va rus tillaridagi ekvivalentlari. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, (2019), 310-bet.

(7). O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (2023). Rasmiy tarjima xizmatlari statistikasi. Toshkent, Adliya vazirligi nashriyoti.

(8). O‘zbekiston Respublikasi Notarial palatasi (2022). Rasmiy tarjima va notarial tasdiqnoma yo‘riqnomasi. Toshkent, Notarial palata nashriyoti.

(9). Šarčević S. (1997). New Approach to Legal Translation. The Hague, Kluwer Law International. 308 p.

(10). Salehi M., Sahragard R. (2015). Legal Translation: Challenges and Strategies. Iranian Journal of Applied Language Studies, 7(2), p. 93–118.

(11). Tiersma P M. (1999). Legal Language. Chicago, University of Chicago Press. 313 p.

(12). United Nations Translation Service (2022). UN Terminology Database (UNTERM). Methodology and Standards. New York, United Nations Secretariat.

(13). European Union Translation Centre (2023). EU Multilingual Legal Glossary. Standards and Best Practices. Luxembourg: Publications Office of the EU.

(14). ISO 17100:2015. Translation Services – Requirements for Translation Services. Geneva, International Organization for Standardization.

(15). O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (2021). “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi, Toshkent, UZINFOCOM.

(16). NAATI (2023). Certification Standards for Legal Translation. A Comparative Global Analysis. Canberra, National Accreditation Authority for Translators and Interpreters.

(17). O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2020). Tarjimonlik ixtisosligi o‘quv dasturi va malaka talablari, Toshkent.

Otajonova Lola Ozodovna (UrDU dotsenti v.b., PhD)

TARJIMADA TARIXIYLIKNI IFODALASH USULLARI VA MURAKKABLIKLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarixiylikni tarjimada ifodalashning ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari hamda tarjima jarayonidagi asosiy usullari haqida kengroq yoritiladi. Tarixiy koloritni saqlab qolishda davr ruhi va milliy-madaniy unsurlarini to‘g‘ri tarjima qilish masalalariga bag‘ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, badiiy tarjima, tarixiy kolorit, tarjima usullari, transliteratsiya, analogiya.*

[1] Bowker L. (2023). Computer–Aided Translation Technology. A Practical Introduction (2nd ed.). Ottawa, University of Ottawa Press. 258 p.